

SIYOSIY MAFKURALAR MADANIY ANTROPOLOGIYA FENOMENI SIFATIDA

Komilova Orzigul

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Siyosatshunoslik yo'nalishi talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy mafkura tushunchasi madaniy antropologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Siyosiy mafkuralar jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, qadriyatlar, an'analar va e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi. Maqolada mafkuralarning kelib chiqishi, ularning madaniy kontekstdagi ahamiyati hamda zamonaviy global jarayonlarga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, siyosiy mafkuralarning antropologik yondashuv orqali tahlil qilinishi ular ortidagi ijtimoiy va madaniy omillarni chuqur anglashga imkon berishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: siyosiy mafkura, madaniy antropologiya, qadriyatlar, ijtimoiy tafakkur, mafkuraviy kurash, identitet, globalizatsiya.

Insoniyat tarixi davomida mafkura doimo ijtimoiy hayotning muhim qismi bo'lib kelgan. Ayniqsa, siyosiy mafkura — insonlar jamiyatdagi o'z o'rnini anglashlari, davlat va hokimiyatga munosabatlari, ijtimoiy adolatga bo'lgan qarashlarini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Madaniy antropologiya esa inson madaniyatini, turmush tarzini, e'tiqod va urf-odatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, siyosiy mafkuralarning shakllanishi va tarqalishini keng ijtimoiy-kultural kontekstda tahlil qilish imkonini beradi.

Mafkura – bu muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat yoki davlatning manfaatlari, orzu-umidlari va maqsadlarini ifoda etuvchi qarashlar majmuasi hamda ularni hayotga tatbiq etish tizimidir. Unda ushbu guruh yoki qatlamning o'tmishdagi tajribasi, hozirgi holati va kelajakdagi rejalarining aks etishi muhim o'rin tutadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarix davomida insoniyat turli mafkuralarni yaratgan va ulardan foydalanib kelgan. Har bir xalq va ijtimoiy kuchlar o'z manfaat va maqsadlariga asoslangan mafkuraviy qarashlar, ta'limotlar va dasturlarni ishlab chiqqanlar. Har qanday yangi mafkura jamiyatda paydo bo'layotgan yangi siyosiy-ijtimoiy kuchlarning ehtiyoj va intilishlarini ifoda etuvchi g'oyaviy tizim sifatida yuzaga keladi. U odatda quyidagi vazifalarni bajarishga intiladi: g'oyani odamlarning ongiga singdirish, jamiyatning turli qatlamlarini birlashtirish, belgilangan maqsadlar sari odamlarni safarbar qilish, ularni ma'naviy va ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, yoshlarni g'oyaviy

tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, boshqa zararli mafkuraviy ta'sirlardan himoya qilish.

Mafkura odatda ma'lum falsafiy yoki diniy qarashlarga asoslanadi, ilmiy fikrlar va axloqiy qadriyatlarga tayangan holda shakllanadi. Mafkura o'z tabiatiga va ta'sir darajasiga qarab, jamiyatni birlashtirishi hamda rivojlantirishi, yoki aksincha, uni bo'linishga olib kelishi mumkin. U davlatning xalqaro maydondagi mavqeiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi, xalqlarni taraqqiyot sari yetaklashi yoki tanazzulga olib borishi mumkin.

Agar mafkura erkinlik, ozodlik, tinchlik va hamkorlik kabi yuksak g'oyalarga asoslangan bo'lsa, u ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi, ma'naviyatni oshiradi va insonlarni ezgu ishlar sari ilhomlantiradi. Bunday mafkura bunyodkorlik xususiyatiga ega bo'ladi. Aksincha, zo'ravonlik, tajovuzkorlik, mustabidlik va ekstremistik g'oyalarga tayanuvchi mafkura esa jamiyatga zarar yetkazadi, xalqlarni zulm va asoratga olib keladigan vayronkor kuchga aylanadi.¹

Siyosiy mafkuralar insoniyatning ilk ijtimoiy tuzilmalaridan boshlab mavjud bo'lgan. Dastlabki e'tiqodlar, urug'-qabila boshqaruvi, diniy hokimiyatlar shakllanishida mafkuraviy asoslar mavjud edi. Ularning rivojlanishi jamiyatning madaniy evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Har bir tarixiy bosqichda siyosiy mafkura yangi shakllarga ega bo'lib, o'z davrining ehtiyojlari va madaniy xususiyatlarini aks ettirib kelgan.

Antropologik yondashuv siyosiy mafkuralarni faqat siyosiy g'oya sifatida emas, balki ular bilan bog'liq bo'lgan rituallar, ramzlar, til, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali tahlil etadi. Masalan, bir xalqning tarixiy xotirasi, diniy marosimlari yoki ramzlar tizimi ma'lum mafkuralarning shakllanishi va mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Bugungi global dunyoda siyosiy mafkuralar tezkor tarqalmoqda va turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sir kuchaymoqda. Bu holat madaniy antropologlar uchun yangi tahlil maydonini ochadi: siyosiy mafkuralarning transmillashuvi, madaniy identitetlarning shakllanishi va mafkuraviy kurashlarning zamonaviy shakllari chuqur o'rganishga muhtoj.

Shuni ham aytish joizki, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda eng asosiy mafkuraviy omil – bu fuqarolarning yuksak siyosiy ongiga ega bo'lishidir. Sababi, siyosiy ong inson voqelikni anglash va uni tushunish asosida shakllanadi, hamda ishlab chiqilgan siyosiy g'oya, me'yor, qarash va e'tiqodlar orqali odamlarning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga soladi. Siyosiy mafkura esa jamiyatdagi turli qatlam va guruhlarining siyosiy hokimiyatga bo'lgan manfaatlarini ifodalovchi, shu manfaatlar asosida siyosiy aloqalarni shakllantiruvchi tizimlashgan qarashlar majmuidir. Bu

¹ Тожибоев, Ж. (2017). Миллий маънавият ва мафкуравий барқарорлик муаммолари. – Тошкент: Фан.

mafkura tegishli siyosiy institutlar, tashkilotlar va korxonalar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Siyosiy ong jamiyatda yangilanish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsatganligi bois, u milliy o'zlikni anglash bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy hayot o'zgarishlarga o'zi-o'zidan duch kelmaydi, ba'zida siyosiy ong ham bu jarayonga befarq bo'lishi mumkin. Biroq u ijtimoiy ong va hayotdagi o'zgarishlarga nazariy va amaliy yo'nalish berishda davom etadi. Inson esa faqat moddiy ne'matlar bilan emas, balki atrofida sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar, davlat va jamiyatdagi islohotlar, insoniyat taraqqiyotiga oid turli model va yondashuvlarga ham qiziqadi. Shu sababli, siyosiy ong jamiyat va davlat hayotida nazariy va amaliy strategiyalarni belgilovchi muhim asos bo'lib, u ijtimoiy ongning yuragi hisoblanadi.

Shuningdek, siyosiy ong jamiyat yangilanishida muhim rol o'ynaydi va u milliy o'zlikni anglash bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy hayot o'z-o'zidan o'zgarishga uchramaydi, ba'zan siyosiy ong ham bu jarayonga loqayd bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, siyosiy ong ijtimoiy hayot va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlarga nazariy, konseptual va amaliy-strategik yo'nalish berishda davom etadi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqali ularni ma'naviy yetuk, sog'lom fikrlaydigan, mustaqil, irodali, ishonchli va iymoni to'liq shaxs sifatida tarbiyalash mumkin. Bunday yoshlar zararli g'oyalarga qarshi mustahkam pozitsiyada turib, ularga qarshi kurasha oladi. Inson ma'naviyatiga tahdid soluvchi xavflarga qarshi ongli ravishda himoyalani ko'nikmalari esa ta'lim-tarbiya, ota-onalarning nasihatlar hamda yaxshi-yomonni farqlash jarayonida shakllanadi. Bola kichikligidan boshlab yaxshi va yomonni ajrata olishni, ularga qanday munosabat bildirishni o'rganishi uchun bog'cha, maktab va jamiyat tarbiyasi bir butun tizimda yo'lga qo'yilishi lozim. Shunda jamiyatda sog'lom va mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

Xulosa qilish mumkinki, siyosiy mafkuralar faqat siyosatchilar yoki g'oyaviy yetakchilar mahsuli emas, balki xalqning madaniy tafakkuri, ijtimoiy xotirasi va tarixiy tajribasi bilan uzviy bog'liqdir. Madaniy antropologik yondashuv bu mafkuralarining ijtimoiy ildizlarini ochib beradi va ularni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marx, K., Engels, F. (1846). The German Ideology. – Moscow: Progress Publishers.
2. Тожибоев, Ж. (2017). Миллий маънавият ва мафкурaviy барқарорлик муаммолари. – Тошкент: Фан.
3. Ҳамидов, Н. (2019). Сиёсий маданият ва сиёсий мафкура. – Тошкент: “Иқтисод-Молия”.
4. Қурбонов, Ш. (2020). Маданиятшунослик ва мафкурaviy жараёнлар. – Тошкент: “Ўқитувчи”.